

“DIYONAT” ROMANIDA BOSH OBRAZLARNI TO‘LDIRIB TURUVCHI OBRAZLAR TALQINI

Rajabova Sabrina Dilshod qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3 - bosqich talabasi.

bobonqulovas@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20043702>

Annotatsiya. Romandagi bosh qahramonlarga yordam bergan, ammo asarning boshidan oxirigacha qatnashmagan qistirma obrazlar talqini haqida. Bu obrazlardan: Proxorovich Polikarpov, O‘roz xo‘roz, Naimjon, Soqijon Obidov, Xolidaxon, Mahbuba, Nazokatbibi, Mahmudjon, Oynisa, Jabbor Shomurodov, Ali mo‘ylov kabilar mavjud. Asardagi bu obrazlar syujet chiziqlarida qisman kesishadi, qaysidir vazifani bajarishadi va yakundagi vazifalarini bajarib bo‘lishgach yozuvchi tomonidan asar yarmigacha ham yetib bormay tugaydi. Asar yordamchi obrazlarsiz asar bo‘la olmaydi. Har bir romanda xoh u mashhur bo‘lsin, xoh u oddiy yordamchi obrazlarning ahamiyati katta. Asar asar bo‘lib shakllanishida nafaqat bosh obrazlarning, balki qistirma va yordamchi obrazlarning o‘rni muhimdir. Romanda yuqorida ismlari keltirilgan obrazlar haqida so‘z boradi. Ularning bosh obrazlar: Otaqo‘zi, Normurod Shomurodov, Vohid Mirobidov kabi obrazlarga ta‘sir to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: O‘rmon xo‘jaligi qorovuli, pogon taqqan ‘sotnik’, bosh mexanik, qurt - qumrsqalar piri, urush qahramoni, idora kotibasi, brigada boshlig‘i, Fazilatning onasi.

Annotation. This work analyzes episodic (minor) characters who assist the main protagonists in the novel but do not appear throughout the entire narrative. These characters include Prokhorovich Polikarpov, O‘roz the Rooster, Naimjon, Soqijon Obidov, Xolidaxon, Mahbuba, Nazokatbibi, Mahmudjon, Oynisa, Jabbor Shomurodov, and Ali Mo‘ylov. These characters partially intersect within the сюжет lines, fulfill specific roles, and after completing their functions, they disappear from the narrative before even reaching the midpoint of the work. A literary work cannot exist without supporting characters. In every novel—whether widely known or simple—the importance of minor and supporting characters is significant. The formation of a complete literary work depends not only on the main characters but also on episodic and auxiliary figures. This study focuses on the aforementioned characters and examines their influence on the main protagonists such as Otaqo‘zi, Normurod Shomurodov, and Vohid Mirobidov.

Keywords: forest ranger, a “sotnik” wearing epaulettes, chief mechanic, patron spirit of worms and ants, war hero, office secretary, brigade leader, forest ranger, Fazilat’s mother.

Аннотация. В данной работе рассматриваются эпизодические (вспомогательные) персонажи, которые помогают главным героям романа, но не присутствуют на протяжении всего произведения. К таким персонажам относятся Прохорович Поликарпов, Ороз-петух, Наимжон, Сокиджон Обидов, Холидахон, Махбуба, Назокатбиви, Махмуджон, Ойниса, Жаббор Шомуродов и Али Мо‘йлов. Эти персонажи частично пересекаются в сюжетных линиях, выполняют определённые функции и, завершив свои задачи, исчезают из повествования, не доходя даже до середины произведения. Произведение не может существовать без вспомогательных персонажей.

В любом романе — будь он известным или простым — роль второстепенных героев чрезвычайно важна.

Формирование художественного произведения зависит не только от главных героев, но и от эпизодических и вспомогательных персонажей. В работе также рассматривается влияние перечисленных персонажей на главных героев, таких как Отақози, Нормурод Шомуродов и Воҳид Миробидов.

Ключевые слова: лесной сторож, «сотник» в погонах, главный механик, покровитель червей и муравьёв, герой войны, секретарь учреждения, бригадир, лесной сторож, мать Фазилат.

Kirish. Adabiyotshunoslik ilmida “obraz” deganda inson ongida in’ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so‘z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to‘qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi. Dastlab biz “obraz” atamasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, “raz” (chiziq) so‘zidan olingan bo‘lib, bu so‘zdan “razit” (yonmoq, o‘ymoq) va undan “obrazit” (chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq) so‘zi yasalgan. “Obrazit” dan “obraz” (umuman olingan tasvir) vujudga kelgan. Obraz badiiy to‘qima yordamida yaratilgan, estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog‘da, aniq manzarasidir.

¹Obraz yaratish ijodkor mahoratiga bog‘liq. Ijodkorning ijod namunasida bosh yoki yordamchi rolni egallash va uni o‘z ma’romiga yetkazib o‘ynash esa obrazlarga xos hisoblanadi.

Asar yaratilguncha yozuvchi shu asar ustida bosh qotiradi, izlanadi, ma’lumot to‘playdi va to‘plangan ma’lumotlar asosida bir ijod namunasi- asar yaratiladi. Yaratilgan badiiy asar tarkibidagi obrazlar - bosh, yordamchi, qistirma va shu kabi obrazlar asosida mazmun – mohiyati yoritib beriladi. Odil Yoqubovning “Diyonat” romanida ham biz bilgan va yuqorida nomlari tilga olingan Otaqo‘zi Umarov, Normurod Shomurodov, Vohid Mirobidov, Abror Shukurov, Haydar, Latofat, Tohira, Qodirjon kabi bosh obrazlardan tashqari Soqijon Obidov, Oynisa, O‘roz xo‘roz, Proxov chinqoq, Ali mo‘ylov va shu kabi bir qancha yordamchi obrazlar mavjud. Bu obrazlar asar uchun juda muhim “shaxs”lar bo‘lishmasada, badiiy asarda o‘z vazifalarini yaxshi bajarishgan, ya’ni bosh obrazlar uchun negiz (asos) vazifasini bajargan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Metodologiyasi: Odil Yoqubovning “Diyonat” romanini tahlil qilish jarayonida yordamchi obrazlarning xarakteri, ularning bosh obrazlarga qaysi tomondan aloqadorligi va syujet chiziqlarida yordamchi obrazlarning kesishishi.

Natija va muhokama: Asar boshida tilga olingan Jabbor Shomurodov obraziga to‘xtalsak, bu obraz “*Jabbor, yelkasida zarrin pogonlar, ko‘ksida Oltin Yulduz, sochlari to‘zg‘igan, qoramtir mardonavor yuzida tortinchoq tabassum, vagondan tushib kelganda, birdan orkestr yangrab, “ura” sadolari osmon-u falakni titratgan edi!..*” kabi ta’riflanadi. Yozuvchi romanda Jabbor obrazida vatan oldidagi burchini oxirigacha yetkaza olgan va jangda mardlarcha halok bo‘lgan, or – nomusli yigit sifatida tasvirlaydi. Bosh obraz bo‘lgan Normurod Shomurodov va uning rafiqasi Gulsara ayaning yakka-yu yagona farzandi Jabbor Shomurodov edi. U ham urushda halok bo‘lgandan so‘ng chol-u kampir bir-birlariga suyanchiq bo‘lib qolishadi. Jabbor garchi yordamchi obraz sifatida olingan bo‘lsada, uning syujet chiziqlaridagi o‘rni beqiyos. Obrazlar to‘qnashuvi (Jabbor va Fazilat o‘rtasida) aynan mana shu syujet chiziqlarida sodir bo‘ladi.

Keyingi obrazimiz asarda nomi keltirib o‘tilgan, qurt-qumursqalar piri, kafedra mudiri, duduq- Soqijon Obidov. “*Soqijon Obidov kafedraga bultur qishda, Moskva universitetining*

¹ Hotam Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti -2004.32-35-bet.

aspiranturasini bitirib keldi. Uning ishi tabiatni biologik usul bilan muhofaza qilish muammolariga bag'ishlangan. Soqijon Obidov ilk bor fakultetda paydo bo'lgan paytlarida undan kulmagan odam bo'lmadi. Ayniqsa, qizlar. U chindan ham juda g'alati, aft-angori, soch-soqoliga qaramas, kiygan kiyimlari qoq suyak tanasida qopdek osilib turar, poshnalari yeyilib, bir tomonga qiyshayib ketgan tuflilari yomg'irsiz yoz kunlari ham botmon-botmon loy bo'lib yurardi. O'ziyam duduq, nutqi yo'q edi. Faqat ilhom kelgan paytlarida, ayniqsa, sevimli mavzusida gap ochgan chog'larida ko'zlari chaqnab, nutqi ham kutilmagan bir ravonlik kasb etardi." Yozuvchi romanda tilga olgan bu obraz Haydar fikricha, go'yo Haydar va Latofat orasidagi qora botir kabi gavdalanadi. Bu obraz Latofatning ilmiy rahbari va u Latofatni universitetda olib qolmoqchi bo'ladi. Latofat bilan birgalikda ular ko'sak qurtining kushandasi- "Trixogramma" nomli kapalak va uning urug'ini ko'paytirish bo'yicha bosh qotirishadi. Bu obraz garchi tip darajasiga chiqmagan bo'lsada, romandagi roli – jamiyatdagi iste'dodli va talabchan yoshlarning kelajagi uchun qayg'uruvchi inson sifatida gavdalanadi.

Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidagi obrazlardan yana biri bu - "Proxor chinqoq".

Asl ismi Proxor Polikarpov bo'lib, u qishloq xo'jaligi qorovuli bo'lgan. Unga "chinqoq" laqabi bir qulog'i yo'qligi sababli berilgan. Proxor chinqoq badiiy asardagi bosh qahramonlardan biri bo'lgan Normurod Shomurodovning qalin oshnasi ekanligi aks etgan. "Proxorning taqdiriyam juda qiziq. U bu yerlarga Nikolay – german urushidan avval, sababi ochlik, poyezdga yopishib kelib qolgan-u, shahar bozorida meshkobchilik qilib yurib, "sartcha"ni suv qilib ichib olgan. "Chinqoq" deyilishi esa dastlab kelgan paytlarida ochlikdan qovun-tarvuz o'g'irlayotgan joyida qo'lga tushgan, qo'lga tushib, bir qulog'idan ayrilgan-u, o'sha-o'sha laqabi "Proxor chinqoq" bo'lib ketgan... Proxor u paytlarda juda yosh bo'lgan, lekin mardikorlarga tilmoch topilmay turgan dolzarb bir paytda kimningdir esiga tushib qolgan-u yigitlarga qo'shib, vagonga bosib yuborishgan. Proxor bechorayam Normurodni ko'rsa, "o'lib" qoladi, o'sha mash'um, ammo nimasi bilandir yuraklarini qitiqlaydigan mardikorlik chog'larini eslab, yotib dardlashadi."

Piroxor chinqoqning o'g'li Artyom Polikarpov ham domla Shomurodovning o'z qo'lida o'sib katta bo'lgan va vaqti kelganda u Shomurodovning Shimoliy daryolarni Janubga burish bilan bir qatorda O'rta Osiyodagi butun suv tarmoqlarini yangilab chiqish to'g'risidagi ilmiy harakatlarini amalga oshirishga yordam beradi. Bu uch og'aynilar - Normurod Shomurodov, Proxor chinqoq va O'rozqul (O'roz xo'roz)lar yoshlikdan birga katta bo'lishgan. Ularning zamondoshlaridan yana biri Valixo'janing o'g'li Qudratxo'ja kabi obrazlar ham mavjud.

Yuqorida tilga olingan O'rozqul obrazi garchi qarib qolgan bo'lsada sho'x, askiyaga usta, ayniqsa domla bilan gaplashganda taqasimon murtini qimirlatib, siyrak qoshlarini uchirib:

– Qaddingizni sal rostlab yuring, mulla Normurod! Bu ahvolda kim tegadi sizga?

– Labbay? – dedi domla, uning qochirig'iga tushunmay.

– Qulog'iga sariyog'dek yoqadi-yu, go'llikka oladi-ya, o'zini! Sal qaddingizni tutib yuring, deyapman sizga! Hozir kampirlar ham mol-dunyoga emas, qad-qomatga qarab tegadigan bo'lishgan, ha! O'rozqul xushchaqchaq chol sifatida ta'riflansada, urushganda urushqoq xo'rozday xezlanib oldinga talpinardi. Shu sifati uchun ham unga xo'roz laqabi berilgan. O'rozqul obrazini yozuvchi garchi xo'roz kabi urushqoq bo'lishiga qaramay, do'stlari uchun o'z jonini berishga tayyor personaj sifatida gavdalanadi.

Roman o'rtalarida tilga olingan Vohid Miroidovning qizi va Shukurovning xotini Mahbuba obrazi. Mahbuba onasi Nazokatbibiga o'xshamas, otasining o'zginasi edi: gap-so'zlari, xulq-atvori, qiliqlari, gapga ustaligi, xushchaqchaq,shirinsuxan juvon edi.

Mahbubaning bir qiz, bir o'g'ilchasi bor ekanligini ham asarni o'qish davomida bilib olamiz. Romanga kiritilgan bu ayol obrazi Shukurovning eng og'ir kunlarida ham yonida turgan sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. *"Hozir-ku, yaxshi, obod rayonga kelishdi. Dasht joylarda, endi o'zlashtirilayotgan cho'l-u biyobonlarda ishlaganida ham ba'zi xotinlarga o'xshab qovoqtumshuq qilib, ota-onasining pinjiga kirib, "qochib yurmay", uning yonidan jilmadi-ku? Issig'iga ham, sovug'iga ham, boriga ham, yo'g'iga ham chidab kelyapti-ku?"*

Sodda, ma'suma, oddiy qishloq ayoli sifatida Oynisa obrazini keltiramiz. Oynisa Quدراتxo'janing xotini. Quدراتxo'ja quloq qilinganda 1929-yilning sovuq kuzida(o'shanda Shomurodov tomonidan) otliq militsionerlar surgunga olib ketishayotgan paytda bozor maydonida bir juvon paydo bo'ladi va u qushday uchib kelib Quدراتxo'janing bo'yniga osiladi.

"Yuzi oftobday tiniq, tim qora sochlari to'pig'iga tushgan, husn-malohatda tengsiz bu juvon – Oynisa edi. Quدراتxo'ja uni quloq bo'lishidan bir yil oldin, qo'lidagi uch-to'rt yashar qizchasini chirqiratib, bir kambag'al yigitdan tortib olgandi, uning quloq qilinib, qishloqdan badarg'a bo'lishiga shu aybi – kambag'al yigitning yosh xotinini tortib olgani ham sabab bo'lgandi. Oynisa esa... qishloq ahlining fikricha, Quدراتxo'janing tuzog'iga tushib, aziyat chekayotgan Oynisa esa, uvvos tortib, uning bo'yniga osilib yig'lardi!" Asarda bu obrazga nisbatan boshida ijobiy fikrda bo'linadi, uning keying taqdiri ya'ni Quدراتxo'ja quloq qilingandan so'ng ikkinchi bora oila qurgani va qizchasi Fazilatni qarindoshlariga tashlab ketgani asarda tasvirlanadi. Domla Shomurodov ham vaqtida bu juvonga oshiq bo'lganligi, hatto bu juvonni deb o'z xotini Gulsarani ham tashlab ketishini ko'rishimiz mumkin,

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Odil Yoqubovning "Diyonat" romanida keltirilgan va biz yuqorida nomlarini tilga olgan obrazlarimiz tasvir chiziqlarida bosh obrazlarga yordam berish asnosida asarda namoyon bo'ladi. Bu obrazlar asarning g'oyaviy va badiiy qatlamini chuqurlashtiruvchi muhim vosita sanaladi. Romanda keltirilgan yordamchi obrazlar, avvalo, jamiyatning turli qatlamlarini ifodalaydi va shu orqali asardagi ijtimoiy muhitni keng hamda real tasvirlashga yordam beradi.

Yordamchi obrazlarning asarda keltirilishi bosh qahramonlarning o'zlariga tutilgan "ko'zgu" hisoblanadi. Keltirgan yordamchi obrazlarning ayrimlari ijobiy sifatleri orqali bosh qahramonni qo'llab-quvvatlasa, boshqalari esa salbiy xatti-harakatlari orqali obrazlar o'rtasida o'zaro konfliktning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Asar syujet chiziqlari kesishishi uchun ham yordamchi obrazlarning "turtki"si muhim hisoblanadi. Shuningdek, yordamchi obrazlar romanning g'oyasini va badiiy mukammalligini ta'minlovchi muhim unsurlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi", Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti -2004.32-35-bet.
2. Odil Yoqubov "Diyonat", Toshkent Nurli dunyo nashryot uyi -2024.